



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI



MAVZU: PhD VA DSc DISSERTATSIYALARINING XALQARO DARAJADA ILMIY AHAMIYATINI E'TIROF ETTIRISH SHARTLARI

Muallif: Z.B. Sangirova

Toshkent-2026 >

REJA:

- Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti va dissertatsiya tadqiqotlariga qo'yilayotgan xalqaro talablar.
- Dissertatsiyaning xalqaro ahamiyati va uni belgilovchi mezonlar.
- Ilmiy yangilik, ilmiy ahamiyat va ilmiy ta'sir: mazmuni va o'zaro bog'liqligi.
- Dissertatsiya natijalarining xalqaro darajada e'tirof etilish indikatorlari.
- Akademik halollik – xalqaro ilmiy obro'ning asosi.
- PhD va DSc dissertatsiyalarini xalqaro darajaga olib chiqish strategiyalari.
- Yosh olimlar tomonidan yo'l qo'yiladigan asosiy xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari.

Kirish



Ilm-fan insoniyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Ilmiy tadqiqotlar nafaqat muayyan davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik rivojlanishiga, balki global muammolarning yechimiga ham xizmat qilmoqda.




Agar o'tgan asrda tadqiqotning ahamiyati asosan mahalliy ilmiy doiralarda baholangan bo'lsa, bugungi kunda uning haqiqiy qiymati xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan qay darajada qabul qilinishi va qo'llanilishi bilan belgilanadi.



PhD va DSc dissertatsiyalari nafaqat ilmiy daraja olish uchun tayyorlanadigan ishlar, balki muayyan fan sohasini rivojlantirishga qaratilgan fundamental yoki amaliy tadqiqotlar hisoblanadi. Shuning uchun ularning xalqaro darajada tan olinishi har bir tadqiqotning muhimligi bilan baholanadi.

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti va dissertatsiya tadqiqotlariga qo'yilayotgan xalqaro talablar



01

dolzarb ilmiy muammoning hal qilishi;

02

yangi ilmiy bilim yaratishi;

03

mustahkam metodologik asosga ega bo'lishi;

04

ishonchli empirik dalillarga tayanishi;

05

natijalari qayta tekshirish uchun imkoniyat yaratilishi;

06

**boshqa olimlar tomonidan qo'llanilishi va
rivojlantirilishi uchun zamin yaratishi.**

DISSERTATSIYANING XALQARO AHAMIYATI VA UNI BELGILOVCHI MEZONLAR

TADQIQOT MAVZUSINING DOLZARBLIGI

Har qanday dissertatsiya muhim ilmiy muammoga bag'ishlangan bo'lishi lozim. Mavzuning dolzarbligi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham asoslangan bo'lishi kerak.

ILMIY YANGILIK

Ilmiy yangilik dissertatsiyaning eng muhim ko'rsatkichidir. Yangi nazariya, konsepsiya, model, texnologiya, algoritim yoki metodikaning ishlab chiqilishi ilmiy yangilik sifatida baholanadi.

METODOLOGIK ASOSLANGANLIK

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot metodologiyasiga bog'liq.

- ❖ tadqiqot muammosi;
- ❖ maqsad va vazifalar;
- ❖ gipoteza;
- ❖ tadqiqot usullari;
- ❖ tajriba-sinov obyekti;
- ❖ ma'lumotlarni tahlil qilish

AMALIY AHAMIYATI

Tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilinishi shart. Ilmiy ishlanmalarning ta'lim, iqtisodiyot yoki ijtimoiy sohalarda qo'llanilishi ularning qiymatini belgilaydi

ILMIY YANGILIK, ILMIY AHAMIYAT VA ILMIY TA'SIR: mazmuni va o'zaro bog'liqligi

Zamonaviy ilm-fanda tadqiqotning haqiqiy qiymati aynan uning ta'siri orqali namoyon bo'ladi. Ilmiy maqolalarga keltirilgan iqtiboslar, tadqiqot natijalarining boshqa mamlakatlarda qo'llanilishi, xalqaro loyihalarda foydalanilishi ilmiy ta'sirning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi.



Ilmiy yangilik

– tadqiqot natijasida birinchi marta olingan bilim yoki ilmiy yechimdir.



Ilmiy ahamiyat

– mazkur yangi bilimning muayyan fan sohasi rivojiga qo'shayotgan hissasidir.



ILMIY TA'SIR

– tadqiqot natijalarining boshqa olimlar tomonidan qay darajada foydalanilayotganini anglatadi.

DISSERTATSIYA NATIJALARINING XALQARO E'TIROF ETILISH INDIKATORLARI

Xalqaro ilmiy jurnallardagi nashrlar. Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazalarida indeksatsiya qilingan jurnallar orqali xalqaro auditoriyaga yetkazish. Q1 va Q2 jurnallarida chop etilgan maqolalar yuqori nufuzga ega.

Iqtiboslanish darajasi. Tadqiqotning ahamiyati boshqa olimlar tomonidan qay darajada qo'llanilayotganligi bilan baholanadi. Iqtiboslar soni qanchalik ko'p bo'lsa, tadqiqotning ilmiy ta'siri shunchalik yuqori hisoblanadi.


H-index. Olimning nashrlari va ularning iqtiboslanish darajasini bir vaqtning o'zida baholaydigan ko'rsatkich hisoblanadi.

Xalqaro hamkorlik. Xalqaro hammualliflikda bajarilgan tadqiqotlar, akademik mobillik dasturlari va qo'shma loyihalar olimning xalqaro maydondagi ko'rinishini kuchaytiradi.

Akademik halollik – xalqaro ilmiy obro'ning asosi. Akademik halollik quyidagi tamoyillarni qamrab oladi:

- ❑ plagiatga yo'l qo'ymaslik;
- ❑ manbalarni to'g'ri ko'rsatish;
- ❑ ma'lumotlarni soxtalashtirmaslik;
- ❑ tadqiqot natijalarini manipulyatsiya qilmaslik;
- ❑ mualliflik huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

PhD va DSc DISSERTATSIYALARINI XALQARO DARAJAGA OLIB CHIQISH STRATEGIYALARI



YOSH OLIMLAR TOMONIDAN YO‘L QO‘YILADIGAN ASOSIY XATOLAR

- mavzuning xalqaro dolzarbligi yetarli asoslanmasligi;
- ilmiy yangilikning aniq shakllantirilmassligi;
- xalqaro adabiyotlar tahlilining yetarli emasligi;
- tadqiqot metodologiyasidagi kamchiliklar;
- statistik tahlilning yetarli darajada qo‘llanilmassligi;
- akademik yozish talablariga rioya qilinmassligi;
- tadqiqot natijalarini xalqaro maydonda ommalashtirishga yetarli e‘tibor berilmassligi.

XULOSA

PhD va DSc dissertatsiyalarining xalqaro darajada e'tirof etilishi zamonaviy ilm-fan taraqqiyotining muhim talablaridan biri hisoblanadi. Bunday e'tirofga erishish uchun tadqiqot dolzarb ilmiy muammoni hal qilishi, yangi bilim yaratishi, mustahkam metodologiyaga asoslanishi va xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olinishi lozim.

Haqiqiy ilmiy yutuq maqola yoki dissertatsiya himoyasi bilan emas, balki yaratilgan bilimning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va jamiyat hayotidagi amaliy samarasi bilan baholanadi.

Shuning uchun har bir yosh olim o'z tadqiqotini mahalliy doiradan chiqib, global ilm-fan rivoji manfaatlari nuqtayi nazaridan tashkil etishi, ilmiy natijalarini xalqaro maydonda namoyon qilishi va milliy ilm-fanning nufuzini yuksaltirishga munosib hissa qo'shishi zarur.



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

UCHUNAHMAT!

<https://raqamlitalim.trm.uz/yosholim>

